



GENDER TENGLIGI: INSON HUQUQLARI, IJTIMOYIY
BARQARORLIK VA KELAJAKDAGI IJOBIY
O'ZGARISHLAR

Ro'zimatova Ijobatoy Sherzodbek qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

Tel: +998 (90) 834 73 79

Email: ijobatoy@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan Gender tengligi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, inson huquqlari va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini o'rganadi. Maqolada gender tengligining tarixi, jamiyatda iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga hissasi. Shuningde, maqola gender tengligini ta'minlash yo'lidagi qiyinchiliklar, patriaxal stereotiplar, gender diskriminatsiyasi va boshqa to'siqlarga qarshi kurashish zarurati, hukumat va xalqaro tashkilotlarning bu boradagi faoliyati hamda kelajakdagi ijobiy o'zgarishlarga qanday erishish mumkinligi haqida tahlillarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola gender tengligi mavzusida chuqurroq tushuncha hosil qilish va jamiyatda haqiqiy tenglikni yaratish uchun zarur ijtimoiy va huquqiy islohotlarni ko'rib chiqadi.*

Kalit so'zlar: Gender tengligi, ijtimoiy va huquqiy islohotlar, inson huquqlari, ayollar huquqlari, gender roli, siyosiy islohotlar, ijtimoiy barqarorlik, gender diskriminatsiyasi, xalqaro tashkilotlar huquqiy tenglik.

GENDER EQUALITY: HUMAN RIGHTS, SOCIAL STABILITY
AND FUTURE POSITIVE CHANGES

Abstract. *This article is dedicated to the issue of gender equality, which is one of the most pressing topics today, and examines its importance in ensuring human rights and social stability. The article explores the history of gender equality and its contribution to economic and political changes in society. Additionally, it addresses the challenges in achieving gender equality, the need to fight against patriarchal stereotypes, gender discrimination, and other barriers, as well as the actions of governments and international organizations in this regard. It also includes analyses on how to achieve positive changes in the future. This article aims to provide a*



deeper understanding of gender equality and examines the necessary social and legal reforms to create true equality in society.

Keywords: *Gender equality, social and legal reforms, human rights, women's rights, gender roles, political reforms, social stability, gender discrimination, international organizations, legal equality.*

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО: ПРАВА ЧЕЛОВЕКА, СОЦИАЛЬНАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПОЗИТИВНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В БУДУЩЕМ

Аннотация: *Эта статья посвящена вопросу гендерного равенства, который является одной из самых актуальных тем на сегодняшний день, и исследует его значение для обеспечения прав человека и социальной стабильности. В статье рассматривается история гендерного равенства и его вклад в экономические и политические изменения в обществе. Также обсуждаются проблемы, с которыми сталкиваются при достижении гендерного равенства, необходимость борьбы с патриархальными стереотипами, гендерной дискриминацией и другими барьерами, а также действия правительств и международных организаций в этой области. В статье также приводится анализ того, как можно достичь позитивных изменений в будущем. Цель статьи — углубить понимание гендерного равенства и рассмотреть необходимые социальные и юридические реформы для создания настоящего равенства в обществе.*

Ключевые слова: *Гендерное равенство, социальные и юридические реформы, права человека, права женщин, гендерные роли, политические реформы, социальная стабильность, гендерная дискриминация, международные организации, юридическое равенство.*

Kirish.

Gender tengligi -bu erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar va imkoniyatlar nuqtai nazaridan tenglikni ta'minlash prinsipidir. Bu tushuncha, jamiyatdagi har bir insonning jinsidan qat'i nazar, teng imkoniyatlarga ega bo'lishi, diskriminatsiya va gender stereotiplaridan xoli bo'lish kerakligini anglatadi. Gender tengligi, shuningdek, erkaklar va ayollarni o'z ijtimoiy rollarni amalga oshirishda, ta'lim olishda, ish joylarda, siyosiy faoliyatda va boshqa sohalarda bir xil huquqlar va imkoniyatlarga ega qilishni maqsad qiladi. Gender tengligini



ta'minlash barqaror va adolatli jamiyatni qurishga yordam beradi. Bugungi kunda ko'plab davlatlar gender tengligi ta'minlash yo'lida huquqiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirmoqda .

Gender tengligi masalasi insoniyat tarixida uzoq vaqt davomida muhokama qilinib kelgan, ammo uning rivojlanishi asosan so'nggi asrlarda aniq shaklga ega bo'ldi. Gender tengligi tarixi ayollar va erkaklarning huquq va imkoniyatlar borasidagi tenglikka erishish uchun olib borilgan kurashlar bilan chambarchas bog'liq. Quyida gender tengligi tarixining asosiy bosqichlari bayon etiladi.

Qadimgi davrlarda gender rollari. Qadimgi jamiyatlarda gender rollari ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar bilan belgilanar edi. Erkaklar asosan jismoniy kuch talab qiladigan ishlarni bajarishgan, ayollar esa oila va uy xo'jaligida asosiy rolni o'ynashgan. Patriarxal tizim ko'plab jamiyatlarda hukmron bo'lgan, erkaklarning ustunligi qadimdan mavjud bo'lgan. Bu esa ayollar huquqlarining cheklanishiga olib kelgan.

O'rta asrlarda gender tengligi. O'rta asrlarda ayollar huquqlari yanada cheklangan bo'lib, ularning asosiy vazifasi oila qurish va bolalarni tarbiyalash deb o'ylangan. Bu davrda ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan, siyosiy va iqtisodiy faoliyatlarda ishtirok etishlariga deyarli ruxsat berilmagan.

Yangi davr: gender tengligi uchun ilk harakatlar (XVIII-XIX asrlar) Fransuz inqilobi (1789-1799): "Erkinlik, tenglik, birodarlik" shiori ostida ayollar ham teng huquqlar talab qila boshlashdi. Olimpia de Gougesning "**Ayollar huquqlari deklaratsiyasi**" (1791) bu boradagi ilk muhim hujjatlardan biridir. XIX asrda feministik harakatlarning birinchi to'liqini boshlandi. Bu davrda ayollar, ayniqsa, ta'lim olish va saylov huquqi uchun kurash olib borishdi. 1848 yil: AQShda o'tkazilgan Seneka Falls Konferensiyasi ayollar huquqlari harakatining muhim bosqichi hisoblanadi. 1869 yil: Yangi Zelandiyada ayollarga saylov huquqi berildi, bu dunyoda ilk marta amalga oshirilgan edi.

XX asr: gender tengligi uchun keng ko'lamli harakatlar. Ikkinchi jahon urushi (1939-1945): Urush davomida ayollar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida erkaklar bilan teng ishlashga majbur bo'lishdi. Bu gender tengligi masalasini yangi bosqichga olib chiqdi. Feministik harakatlarning ikkinchi to'liqini (1960-1970 yillar): Ayollar faqat huquqiy tenglik emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va reproduktiv huquqlar uchun ham kurash olib bordi. 1963-yil AQSHda "Ayollarning teng huquqlari to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. Ayollar gender stereotiplariga qarshi kurashishni kuchaytirishdi va ta'lim, mehnat va siyosat sohalarida o'z o'rinlarini talab qila boshlashdi. **XXI asr: global miqyosda gender tengligi.**





Xalqaro huquqiy me'yorlar: Gender tengligi inson huquqlari tizimining ajralmas qismi sifatida tan olindi.

1948-yil BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari va umumjahon deklaratsiyasida erkaklar va ayollarning teng huquqlari ta'kidlangan. 1979-yil BMT tomonidan CEDAW konvensiyasi (Ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risida) qabul qilindi. 2015-yil BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida gender tengligi asosiy maqsad sifatida belgilandi. Gender tengligi tarixi inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida ko'p asrlik kurashlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi davrda bu masala faqat ayollar huquqlari emas, balki barcha jinslarning teng imkoniyat va huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Gender tengligini rivojlantirish davom etayotgan jarayon bo'lib, ijtimoiy ong va madaniyat o'zgarishi bilan bog'liq.

Gender tenglikning huquqiy asoslari

Hozirgi kunda gender tengligini ta'minlash zamonaviy huquqiy tizimlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Gender tengligini ta'minlashning huquqiy jihatdan tartibga solinishi ijtimoiy adolatni ta'minlash va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan. Xalqaro darajad gender tengligini ta'minlashga doir bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan yuqorida keltirgan hujjatlarni batafsil yoritamiz.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948). Ushbu hujjatda barcha insonlarning teng huquqliligi va qadr-qimmatini ta'kidlanadi. Deklaratsiya gender, irq, din va boshqa asoslarga ko'ra kamsitishni taqiqlaydi. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW, 1979) Ushbu konvensiya ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. CEDAWga a'zo davlatlar gender tenglikni ta'minlash uchun milliy qonunchiliklarini moslashtirishga majburdir. Barqaror rivojlanish maqsadlari (2030) BMT tomonidan belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlarining 5-maqsadi ayna gender tenglikni ta'minlash va barcha ayollar hamda qizlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Gender tengligining huquqiy asoslari xalqaro va milliy darajada mustahkamlangan. Jamiyatda har bir insonning teng imkoniyatga huquqqa ega bo'lishi gender tengligi orqali amalga oshiriladi va bu adolatli jamiyatni shakllantiradi. Bu prinsipga asoslangan siyosat va amaliyotlar turli sohada sezilarli rivojlanish ko'radi. Yuqori malakali kadrlar sonining ortishiga olib keladi, bu esa jamiyatning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayollar va erkaklarning teng imkoniyatlari yaratishning ijtimoiy-iqtisodiy foydalari ham mavjud. Ishchi kuchidan samarali foydalanish. Innovatsiyala va kreativlikni oshirish, ayollar va erkaklarning teng imkoniyatlari tashkilotlarda xima-xil fikrlash va yondashuvlarni rag'batlantiradi.





Gender tengligidagi to'siqlar va muammolar

Gender tengligini ta'minlashda jamiyatda mavjud to'siqlar va muammolar sezilarli rol o'ynaydi. Bu muammolar ijtimoiy, iqtisodiy, va madaniy sohalarda ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlardan foydalanishlarini cheklaydi. Stereotiplar va kamsitishlar. Gender stereotiplari-jamiyatda ayollar va erkaklarning vazifalari, imkoniyatlari va rollari haqidagi noto'g'ri tushunchadir. Ayollar uy ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerek degan qarash ancha jamiyat ichida shakllanishiga ulgurdi. Ushbu qarash asosan patriaxal jamiyatning shakllanishi bilan bog'liq. Erkaklarning jismoniy mehnat talab qiladigan sohalarda faoliyat yuritishi ayollarning oilaviy va uy ichidagi mas'uliyatlariga bog'lab qo'yishiga olib kelgan va shundan boshlab ayollar faqatgina uy ishlari bola tarbiyasi oila parvarishi bilan shug'ullanishi kerak degan noto'g'ri stereotip shakllanib qolgan. Bu stereotiplar ayollarning kasbiy rivojlanishi va iqtisodiy mustaqillikiga erishishiga to'sqinlik qiladi. Ayollar ko'pincha oilaviy majburiyatlari sababli yuqori lavozim yoki uzoq muddali davomli karera qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, yana ayollarni ma'lum sohalarda ishlashiga ham qarshiliklar mavjud bu ayollarning o'z sevgan sohasida faoliyat yuritishidan mahrum qiladi. Bu esa ayollarning qiziqqan va qobilyatli bo'lgan sohalarda ishlashiga to'sqinlik qiladi va ularning shaxsiy rivojlanishi hamda jamiyatdagi o'z o'rnini to'liq anglashiga halaqit beradi.

Jamiyatda ayrim ishlar faqat erkaklarga mos keladi degan tushuncha mavjud. Ayollarning rahbarlik lavozimlariga yoki texnologik, siyosiy sohalarga kirib borishi ko'pincha to'qinliklarga uchraydi. Buning sababi ular ko'proq "yumshoq ko'nikmalar"ni talab qiladigan kasblarga mos keladi degan qarashdir. Cheklovlarning oqibati esa albatta salbiydir ijtimoiy tengsizlik va ayollarga nisbatan mavjud stereotiplarning yanada kuchayishiga olib keladi. Ko'p mamalakatlarda STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida ayollar soni erkaklarga nisbatan kam. Bu holat ayollarning ushbu sohada ishlashga yetarli qobilyati yo'qligi haqidagi noto'g'ri stereotiplarning mustahkamlaydi. Ayrim mamalakatlarda ayollarga jangovar xizmat yoki yuqori darajadagi harbiy lavozimni egallash taqiqlangan buning sababi ayollarning himoya qilish niqobidir. Bu holat ayollarning jasorat mardlik rahbarlik qobilyatlariga shubha bilan qarashdan kelib chiqadi. Zamonaviy jamiyatning dolzarb masalalaridan biri siyosiy ishtirokda gender tengligini ta'minlash. Siyosiy jarayonlarda ayollarning yetarli vakillarga ega bo'lmasligi va gender stereotiplari tufayli ularga nisbatan kamsitishlar jamiyatning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.





Ayollarning siyosiy qaror qabul qilishdagi ishtiroki pastligi statistik ko'rsatkichlar dunyoda ayollar parlament a'zolarining o'rtacha 26% tashkil qiladi. Ayrim mamlatlarda ayollar davlat boshqaruvi va siyosiy lavozimlarda ko'rinmaydi. Ko'pgina jamiyatlarda siyosiy faoliyat erkaklarga mos deb qaraladi. Ayollarning siyosiy faoliyatda kamligi siyosiy qaror qabul qilish jarayonida kam ishtiroki ularning ehtiyojlari va manfaatlari yetarlicha hisobga olinmasligiga olib keladi. Ayollar siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etmasa, jamiyatdagi tenglik, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini rivojlantirish jarayoni sekinlashadi. Ba'zi mamlakatlarda (Vatikan, Eron, Birlashgan Arab Amirliklari) ayollar saylovlarda nomzod sifatida qatnashish imkoniyatidan deyarli mahrum. Siyosiy partiyalar ko'pincha ayollarni rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilishdan bosh tortadi. Siyosiy ishtirokdagi gender tenglikni ta'minlash strategiyalari. Siyosiy kvotalar joriy etish: Ayrim mamlakatlar siyosiy lavozimlarda ayollarning ishtirokini ta'minlash uchun kvotalar tizimi joriy qilgan. Masalan, Ruanda parlamentida ayollar soni 60% oshadi, bu kvotalar tizimi natijasidir.

Gender tengligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar

Gender tengligini ta'minlash uchun davlat siyosati, qonunchilik, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining hamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Quyida ushbu sohada amalga oshirilayotgan asosiy chora tadbirlar yoritiladi. **Davlat siyosati va qonunchilikdagi yangiliklar.** Teng imkoniyatlar to'g'risidagi qonunlar: Davlatlar ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni kafolatlaydigan qonunlar qabul qilinmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida gender tengligi siyosiy va iqtisodiy sohalarda qonunchilik orqali himoyalangan.

Ta'lim sohasida chora-tadbirlar: Qizlarning maktab va oliy ta'limga kirishini rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar joriy etilmoqda. Masalan, Hindistonda "Beti Bachao, Beti Padhao" (Qizni asrang, qizni o'qiting) tashabbusi qabul qilingan. Ish joyidagi gender tenglik: Erkaklar va ayollar uchun bir xil imkoniyat va maoshlar ta'minlanishi yo'lida qonunlar qabul qilinmoqda. Masalan, Islandiyada "Equal Pay Certification" tizimi mavjud. UN WOMEN: Gender tengligini targ'ib qiluvchi global tashkilot. UN WOMEN (United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women)- Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) gender tengligi va ayollar huquqlarini mustahkamlashga ixtisoslashgan bo'linmasi. Tashkilot 2010-yilda tashkil etilgan bo'lib, dunyo bo'ylab gender tenglikni ta'minlash va ayollarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalarda kuchaytirish uchun ishlaydi. Tashkilotning asosiy maqsadlari gender tengligini ta'minlash, ayollar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish.



UN Women faoliyatining asosiy yo'nalishlari: huquqiy va siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, siyosiy ishtirokni oshirish, iqtisodiy mustaqillikni qo'llab-quvvatlash, zo'ravonlikka qarshi kurashish. UN Women tomonidan amalga oshirilgan yirik loyihalar "Safe Cities" dasturi: Bu dastur shahar muhitini ayollar uchun xavfsizroq qilishga qaratilgan. Jamoat transportida va ko'chalarda ayollarning zo'ravonlik qurboniga aylanishining oldini olish choralari ko'riladi. **"Women's Empowerment Principles" (WEPs):** Bu tashabbus biznes sektorida gender tenglikni qo'llab-quvvatlaydi. Kompaniyalar uchun ayollarni ishga qabul qilish va rahbarlik lavozimlariga tayinlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. UN Women gender tenglikni targ'ib qilish va ayollar huquqlarini himoya qilishda global miqyosda muhim rol o'ynaydi. Tashkilotning ta'lim, iqtisodiy mustaqillik, siyosiy ishtirok va huquqiy himoya sohalaridagi sa'y-harakatlari gender tenglikka erishish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tashkilotning faoliyati orqali dunyoning turli mintaqalarida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish yo'lida katta yutuqlarga erishilmoqda.

Kelajakda gender tenglikka erishishdagi ijobiy o'zgarishlar

Gender tengligi ni ta'minlash global darajadagi asosiy maqsadlarga aylangan. Bu orqali qator islohotlar, xalqaro tashabbuslar va texnologik taraqqiyot orqali jamiyatlarda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishi kutilmoqda. Huquqiy va siyosiy islohotlar. Kelajakda gender tengligini ta'minlash uchun ko'plab davlatlar o'z qonunchiligini yanada mustahkamlaydi va ayollar uchun teng imkoniyatlarni qonun darajasida kafolatlaydi. Siyosiy ishtirokning oshishi: Ayollar uchun kvotalar joriy etilishi natijasida siyosiy vakilning oshishi kutilmoqda. Rahbarlik lavozimlarida ayollarning ulushi ortib, ular siyosiy qaror qabul qilish jarayonlariga faol jalb etiladi. Demokratik jamiyatlarda gender tenglik siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Huquqiy himoya kuchayishi: Gender tenglikka qarshi kamsitishlarni taqiqlovchi global qonunchilik standartlari qabul qilinadi. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va jinsiy kamsitishga qarshi qonunlar kuchayadi. Ayollarning mehnat bozoridagi huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro konvensiyalar qamrovi kengayadi. Gender tengligiga qilinga bugungi invetsitsiyalar yorqin kelajakni ta'minlaydi. Barqaror rivojlanish bu barcha jinslar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiyot imkoniyatlarga teng kirishni ta'minlashdir. Stereotiplarni bartaraf etish va inklyuzivlikni targ'ib qilish orqali biz iqlim o'zgarishi va iqtisodiy tengsizlik kabi global muammolarni hal qilishda innovatsion yechimlar yaratishimiz mumkin. Gender tengligi ta'minlangan dunyo nafaqat adolatli, balki farovon va barqaror hamdir. Teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali ta'lim sohasida katta o'zgarishlar





kuzatilmoqda. Qizlar va o'g'il bolalarga bir xil sifatli ta'lim olish imkoniyati berilganda, jamiyatning umumiy savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshadi. Bu esa kelajakda barcha sohalarida yetarli malakali kadrlar yetishib chiqishini ta'minlaydi. Stereotiplarni yo'q qilish: Gender tengligi ta'lim tizmida qizlarni faqat oila yoki maishiy vazifalar uchun emas, balki fan texnologiya, muhandislik va matematika sohalarida faoliyat yuritishiga rag'batlantiradi. Bu esa global muammolarni hal qilishda innovatsion yechimlarni yaratishga yordam beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gender tengligini ta'minlash jamiyatning barcha jabhalarida ijobiy o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bu o'zgarishlar inson huquqlarini ta'minlashdan tortib, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishgacha bo'lgan ko'plab sohalarini qamrab oladi. Shuni aytishimiz mumkinki gender tengligi asosida qurilgan jamiyatning kelajagi adolatli, farovon va barqaror bo'lishiga shubha yo'q. Har bir inson bu jarayonda o'z rolini tushunib, tenglik va hurmat tamoyillariga asoslangan muhitni shakllantirishga o'z hissasini qo'shishi lozim. Faqat shundagina biz umumiy maqsadimiz – har bir inson uchun teng imkoniyatlar va baxtli kelajak sari yetisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hooks, B. (2000). Feminist Theory: From Margin to Center. South and Press.
 2. Melissa Leach (2015). Gender Equality and Sustainable Development.
 3. Nicholas D. Kristof va Sheryl WuDunn (2009) Half the Sky: Turning Oppression into Opportunity for Women Worldwide
 4. World Economic Forum (Har yili yangilanadi) "The Global Gender Gap Report"
- web-sayt:** www.weforum.org